

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

**Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti
direktori birinchi o‘rinbosari**

R.Xursanov



2026-yil 30-yanvar

**Adliya organlari va muassasalari xodimlari uchun
“Mediatsiya” yo‘nalishi bo‘yicha tanlov modullarining kompleks
O‘QUV DASTURI**

TOSHKENT

1-MODUL. MEDIATSIYA INSTITUTI. NIZOLARNI MEDIATSIYA ORQALI HAL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

MODULNING MAZMUNI

I. Kirish
Modul dasturi O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2025-yil 28-martdagi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-son qarori ijrosini ta‘minlash haqidagi 122-um-son buyrug‘i ijrosi yuzasidan qayta ishlab chiqilgan.
II. Modulning maqsadi
Adliya organlari va muassasalari xodimlarining mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari, mediatorning kasbiy ko‘nikmalari, etikasi va javobgarligi, muzokaralar mediatsiyaning asosi sifatida, mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari, mediatsiyada taraflar vakillarining roli va funksiyalari, mediatsiya jarayoni, mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish hamda mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha nazariy bilimlar berish.
III. Modulning vazifalari
Adliya organlari va muassasalari xodimlarining quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish: mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari; mediatorning kasbiy ko‘nikmalari, etikasi va javobgarligi; muzokaralar mediatsiyaning asosi sifatida; mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari; mediatsiyada taraflar vakillarining roli va funksiyalari; mediatsiya jarayoni; mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish; mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o‘ziga xos xususiyatlari.
IV. Adliya organlari va muassasalari xodimlarining bilim, ko‘nikmalariga (kompetentlik) qo‘yiladigan kasbiy malaka talablari
Adliya organlari va muassasalari xodimlari o‘z kasbiy faoliyatini tashkil etish uchun quyidagi bilim, ko‘nikmalarga (kompetentlik) ega bo‘lishi kerak: Adliya vazirligining asosiy vazifalari, ish uslubi va qadriyatlari haqida bilish; o‘zi faoliyat yuritayotgan tarkibiy tuzilma faoliyatining asosiy vazifalari, yo‘nalishlari va funksiyalari bo‘yicha bilimlarga hamda vazifalarni samarali bajara olish; “Ochiq adliya” (“Open Justice”) dasturining maqsad va vazifalarini bilish; o‘zi faoliyat yuritayotgan tarkibiy tuzilma faoliyatidagi tizimli muammolarni aniqlay olish va ularni bartaraf eta olish; o‘z xizmat vazifalarini samarali bajara olish; qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil eta olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish; murojaatlar bilan ishlash, ish yuritish va ijro intizomini ta‘minlay olish; huquqiy targ‘ibot va aholining huquqiy savodxonligini oshirishga doir faoliyatni amalga oshira olish; adliya organlari va muassasalari faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha zarur bilimlarni egallash; ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini mazmun-mohiyatini bilish; o‘z ish faoliyati samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va “Elektron hukumat” tizimidan samarali foydalana olish; yuridik nutq, notiqlik va yozma nutq mahoratiga ega bo‘lish; muloqot psixologiyasining adliya xodimlari faoliyatida o‘rni va ahamiyati hamda jamoadagi konfliktli vaziyatlar, ularni bartaraf etish imkoniyatlari haqida bilimlarga ega bo‘lish; nizolarni hal etish texnologiyalari borasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.
V. Kutilayotgan natijalar
Modulni o‘zlashtirish tinglovchilarga mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy

asoslari; mediatorning kasbiy ko‘nikmalari, etikasi va javobgarligi; muzokaralar mediatsiyaning asosi sifatida; mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari; mediatsiyada taraflar vakillarining roli va funksiyalari; mediatsiya jarayoni, mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish hamda mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘rganishga zamin yaratadi.

MODULNING MAVZULAR REJASI

№	Mavzular nomi	O‘quv mashg‘uloti	Jami
1.	Mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari.	2	2
2.	Mediatorning kasbiy ko‘nikmalari, etikasi va javobgarligi.	2	2
3.	Muzokaralar mediatsiyaning asosi sifatida.	2	2
4.	Mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari. (dars mashg‘ulotlari amaliyotga yo‘naltirilgan zamonaviy shakllar — “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo‘lib ishlash” va boshqa usullarni qo‘llagan holda tashkil etiladi).	2	2
5.	Mediatsiyada taraflar vakillarining roli va funksiyalari. (dars mashg‘ulotlari amaliyotga yo‘naltirilgan zamonaviy shakllar — “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo‘lib ishlash” va boshqa usullarni qo‘llagan holda tashkil etiladi).	2	2
6.	Mediatsiya jarayoni, mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish. (dars mashg‘ulotlari amaliyotga yo‘naltirilgan zamonaviy shakllar — “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo‘lib ishlash” va boshqa usullarni qo‘llagan holda tashkil etiladi).	2	2
7.	Mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o‘ziga xos xususiyatlari. (dars mashg‘ulotlari amaliyotga yo‘naltirilgan zamonaviy shakllar — “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo‘lib ishlash” va boshqa usullarni qo‘llagan holda tashkil etiladi).	2	2
JAMI:		14	14

O‘QUV MATERIALINING MAZMUNI

1-Mavzu: Mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari
Mediatsiyaning mohiyati. Mediatsiyani qo‘llash shartlari. Mediatorning faoliyatiga haq to‘lash. Mediatsiyaning huquqiy asoslari.
Manbalar: 1. O‘zbekiston Respublikasi “Mediatsiya to‘g‘risidagi” Qonuni. 2. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi buyrug‘i. Internet resurslari: 1. https://lex.uz/docs/3805227. 2. https://lex.uz/uz/docs/4185961.
2-Mavzu: Mediatorning kasbiy ko‘nikmalari, etikasi va javobgarligi
O‘z taqdirini o‘zi belgilash. Xolislik, betaraflik. Manfaatlar to‘qnashuvi. Kompetentsiya. Maxfiylik. Jarayon sifati. Reklama va murojaatlar. Sovrin. Axloqiy me‘yorlar. Mediatorning kasbiy faoliyati tamoyillari. Statistika ma’lumotlarini taqdim etish. Mediatorlarning kasb etikasi qoidalari.
Manbalar: 1. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining “Mediatorlarning kasb etikasi qoidalarini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i.
5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining “Mediatorlar tomonidan statistika ma’lumotlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i.

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-3805227>.
2. <https://www.lex.uz/uz/docs/-1072079>.
3. <https://lex.uz/docs/-52268>.
4. <https://lex.uz/docs/-7964665>.
5. <https://lex.uz/docs/-7966570>.

3-Mavzu: Muzokaralar mediatsiyaning asosi sifatida

Nizoni muqobil hal etishning asosiy usullari. Muzokara bosqichlari. Muzokaralar turlari. Sud majlisi qismlari. Hal qiluv qarorini chiqarmasdan turib ish yuritishni tugatish asoslari. Sud muzokaralari. Sud muzokaralarida so‘zga chiquvchilar qat’iy tartibi. Oxirgi luqma huquqi. Ishni mazmunan muhokama qilishni tiklash.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risidagi” Qonuni.
2. Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi bo‘yruq‘i.

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz/docs/3805227>.
2. <https://lex.uz/uz/docs/4185961>.
3. <https://lex.uz/docs/4859436>.

4-Mavzu: Mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari

Mediatsiya bosqichlari. Mediatorning kirish so‘zi. Taraflarning tushuntirishlari. Muzokaralar. Kokus. Kokusda mediatorning vazifalari. Asosiy vazifalarni aniqlash va savdolashish. Mediativ kelishuv matnini tayyorlash. Mediatsiyani yakunlash.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz/docs/3805227>.
2. <https://lex.uz/docs/1072079>.

5-Mavzu: Mediatsiyada taraflar vakillarining roli va funksiyalari

Mediatsiyada tarflarning huquq va majburiyatlari. Taraflar. Ishonchnomani bekor qilish asoslari. Majburlik darajasi bo‘yicha mediatsiya modullari. Advokatning mediatsiyada ishtiroki. Notarius mediator sifatida. Ijro ishi bosqichida mediatsiya.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
4. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni.

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz/docs/3805227>.

2. <https://lex.uz/docs/-111189>.
3. <https://lex.uz/docs/-3517337>.
4. <https://lex.uz/docs/-3523891>.
5. <https://lex.uz/docs/-26477>.

6-Mavzu: Mediatsiya jarayoni, mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish

Mediyatsiya jarayoni. Mediatsiyani qo'llash shartlari. Mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuv. Mediatsiyaning boshlanishi. Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tartibi. Mediatsiya jarayoni va u bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish. Mediatsiya jarayoni natijasida tuzilgan shartnomani bajarish, mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza, ajrim va ijro varaqa, advokatga mediator sifatida haq to'lash

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga nizolarni muqobil hal etishda mediatsiya institutini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i.

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz/docs/3805227>.
2. <https://lex.uz/docs/-3517337>.
3. <https://lex.uz/docs/-3523891>.
4. <https://lex.uz/docs/-26477>.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-7775310>.
6. <https://lex.uz/docs/-4138215#-4829705>.

7-Mavzu: Mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizokarni Mediatsiya orqali hal etishning o'ziga xos xususiyatlari

Mediatsiyani mehnat nizolariga tatbiq etilishi. Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni ko'rib hal qilish vakolatiga ega bo'lgan organlar. Mehnat nizolarini mediatsiya orqali hal etishning afzalliklari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risidagi" Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i.
3. Tuymayev A.S. Mehnat nizolari tushunchasi va ularni hal etish bilan bog'liq muddatlar / "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz. 2025. Volume 6 Issue 6. ISSN 2181-0842 – S.792-798.

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz/docs/3805227>.
2. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.
2. <https://lex.uz/uz/docs/4185961>.
3. <https://moluch.ru/archive/116/32183/>.